

QORAQALPOQ MILLIY LIBOSLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Jalğasbaeva Aynur

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti Sanatshunoslik fakulteti talabasi.

Mail: aynurjalgasbaeva0112@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15674571>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpoq milliy liboslarining dastlabki shakllari, turli tasirlar natijasida ózgarish bosqichlari, ranglar politrasi, silueti, aksessuarlari haqida bayon qilingan. Qoraqalpoq milliy liboslarining boshqa millatlarning an'anaviy liboslaridan ajralib turuvchi naqshlari, ularning mazmun mohiyati haqida ham ta'kidlab ótilgan. Bundan tashqari hozirgi kunda nafaqat ayollar balki erkaklar garderbida ham óz órniga ega Etno uslubdagi kiyimlar, aksessuarlar haqqida tasavvurga ega bólish uchun malumotlar berilgan.

Kalit sózlar: moda, siluet, kostyum, aksessuar, garderb, kompozitsiya, kontrast, obraz, model, etno, politra.

Аннотация. В данной статье рассказывается о ранних формах Каракалпакского национального костюма, этапах трансформации в результате различных воздействий, цветовой гамме, силуэтах, аксессуарах. Узоры каракалпакских национальных костюмов, отличающиеся от традиционных костюмов других национальностей, также подчеркивают их содержательную сущность. Кроме того, в настоящее время не только в женском, но и в мужском гардеробе представлены данные, позволяющие получить представление об одежде, аксессуарах в этно-стиле.

Ключевые слова: мода, силуэт, костюм, аксессуар, гардероб, композиция, контраст, образ, модель, этно, политра.

Abstract. This article describes the early forms of the Karakalpak national costume, the stages of transformation as a result of various influences, colors, silhouettes, accessories. The patterns of Karakalpak national costumes, which differ from the traditional costumes of other nationalities, also emphasize their substantial essence. In addition, at present, not only the women's, but also the men's wardrobe contains data that allows you to get an idea of ethno-style clothing and accessories.

Keywords: fashion, silhouette, costume, accessory, wardrobe, composition, contrast, image, model, ethno, polytra.

An'anaviy qoraqalpoq libosining milliy madaniyatdagi o'rnini tadqiq qilish avvalo "an'anaviy libos" hamda "milliy madaniyat" tushunchalariga aniqlik kiritishni taqozo etadi.

"An'anaviy libos" tushunchasiga aniqlik kiritish maqola mavzusining dolzarbligini belgilovchi muhim jihatlardan biri sanaladi. Mazkur maqolada an'anaviy libos milliy madaniyatdagi mustaqil mahsulot sifatida bayon etiladi hamda u insonni tashqi ta'sirlardan himoyalaydigan, boshqa kishilar bilan muloqotga kirishishda muhim vosita vazifasini bajaradigan, har bir odamning go'zallikka munosabatini aks ettiradigan, xarakter xususiyatini va uning yuksak didini ifodalaydigan omil ekani, libosning ijtimoiy va madaniy turmush bilan bevosita bog'liqligi, u barcha zamonda ham bir necha vazifani bajara olishi – ko'p funktsionalligi tadqiq etiladi.

An'anaviy libosning o'ziga xosligi odatda hududning geografik joylashuvi hamda muayyan tarixiy davr bilan bevosita bog'liq bo'lib, u ijtimoiy, oilaviy yoki diniy munosabatni (mavqeni) o'zida namoyish etishi mumkin.[1]

Kostyum shakli paydo bo'lishiga, uning o'zgarishiga, mukammallashib borishiga quydagilar sabab bo'lgan: tabiiy omillar: atrof muxit, iqlim va fasllar, ijtimoiy iqtisodiy omil- jamoaning tuzimi, xalqning tarixiy taqdiri, etnik gruhi va millati, din, turmush tarzi, fan va texnika rivojlanishi, insoniy omil sifatida- jinsi, yoshi, gavda tuzilishi tasir kórsatgan.

Har qanday davr kostyumi sanat asari bo'lgan, chunki inson ózining estetik didiga va tasavvuriga binoan badiiy obraz yaratgan. Kostyum davr va uslubga binoan ózgarib turuvchi murakkab sanat asari va óziga hos kompozitsiyadir.[2]

Kompozitsiya ([lotincha](#): *compositio* — tuzilish, birlashish, bog'lanish) — badiiy asarning mazmunan, harakteri va maqsadi jihatidan bog'langan qismlarining joylashishi.

Libos silueti moda olamida takrorlanishi tabiiy xol hisoblanadi faqat ayrim detallar ósha zamonga mos qilib ózgargan holda. Hozirgi kunda libos silueti keng bichimga ega va milliylikni ózida jamlagan bosiq rangli liboslar urfga kirgan. Liboslar milliy zargarlik buyumlari bilan tóldirilib milliy ruhdagi zamonaviy obrazni yaratib beradi. [3]



20-asrdagi qizlar tóy libosi



Hozirgi kundagi qizlar tóy libosi

Bugungi kunda zamonaviy madaniyatdagi dizaynerlik namunalari uchun individuallashtirishning umumjamoadan ustunligi xarakterlidir. Ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati juda katta bo'lgan an'anaviy madaniyat namunasi sifatida órganilayotgan an'anaviy libos uchun bunday yondashuv juda muhimdir.

Shuning uchun ham mazkur maqolada ishlab chiqilgan dizaynerlik yondashuvi libosning amaliy, semiotik va estetik xossalarining tahlili va tahlil natijalarining sinteziga asoslangan.

Milliy madaniyatning murakkab komponenti hisoblangan ananaviy libosni tuzilishiga, semiotikasiga asoslanib tasniflash mumkin. Tasniflashning har ikkala tamoyili tizimli yondashuv asosida bajarilishi lozim. Ananaviy libosni tuzilishiga kóra tasniflash alohida kiyimlarning konstrukciyasi, bichimi, shakli (shu jumladan bezak detallarining shakli) asosida amalga oshiriladi, yani bu yerda libosning óziga xos morfologiyasi órganiladi. Bunday tasniflanishda konstrukciya va shaklga bevosita tasir kórsatadigan mato va materiallar tahlili ham qilinishi zarur, chunki matoni odam gavdasiga moslashishining texnologik echimi bichim va shaklning qanday bólishini belgilab beradi. Aynan shakl “ananaviy libosning óziga xos etnik belgisi va badiiy echimining vositalaridan biridir”[4]

Shu bilan birgalikda milliy modaning, ya'ni milliy kiyimlarni sanoatlashmagan usullar yordamida mahalliy tarzda ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Turli mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi madaniy ayriboshlash va ayniqsa, turizm sanoatining izchil rivojlanishi tufayli butun dunyoda mazkur faoliyatning taraqqiy topishiga imkon tug'iladi.

REFERENCES

1. Калашникова Н.М. Народный костюм в контексте традиций российской культуры. Дисс. ... докт. культурологических наук. Санкт-Петербург, 1999 г. 61-стр.
2. A.Allamuratov Каракалпакская народная вышивка. Nukus 1977
3. Фурсова Е.Ф. Традиционная одежда русских крестьян-старожилов Верхнего Приобья (конец XIX-нач.XX в.в.). — Новосибирск: Инст. археол. и этнограф. СО РАН, 1997 г. —152 с.
4. A.Ismailova “Zamonaviy liboslar va Qoraqalpoq milliy naqshlari uyğunligi” maqola